ARTPEDAGOGIKA KONSEPSIYASI ASOSIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Badriddinova Sitora Samariddin qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti doktoranti
sitorabadriddinova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada artpedagogika tushunchasi va uning mohiyati va nazariy asoslari berilgan. Shuningdek artpedagogika konsepsiyasining umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi nazariy asoslari tahlil qilinadi. Bugungi kunda globallashuv jarayonida ta’lim tizimida o‘quvchi yoshlarning mustaqil va kreativ fikrlashi, estetik didi, emotsional intellektini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolada o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beruvchi artpedadogik yondashuvning mazmuni, asosiy tamoyillari umumiy o‘rta ta’lim tizimidagi o‘rni turli ilmiy adabiyotlar asosida yoritib berilgan. Shuningdek san’atga asoslangan ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashning afzalliklari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Artpedagogik yonndashuv, ijodiy kompetensiya, kreativ fikrlash, estetik did, emotsinal intellekt, ta’lim texnologiyalari.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ НА ОСНОВЕ КОНЦЕПЦИИ АРТ-ПЕДАГОГИКИ

Аннотация. В статье раскрываются понятие, сущность и теоретические основы арт-педагогики. Также анализируется теоретическая база арт-педагогики в контексте развития творческих компетенций у учащихся общеобразовательных школ. В условиях современной глобализации формирование у школьников самостоятельного и творческого мышления, эстетического вкуса и эмоционального интеллекта является приоритетной задачей системы образования. На основе анализа различных научных источников в статье рассматриваются содержание, ключевые принципы и роль арт-педагогического подхода, способствующего развитию творческих компетенций учащихся. Кроме того, анализируются преимущества внедрения в учебный процесс образовательных технологий, основанных на искусстве. Ключевые слова: арт-педагогический подход, творческая компетенция,

творческое мышление, эстетический вкус, эмоциональный интеллект, образовательные технологии.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENT CREATIVE COMPETENCIES IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS BASED ON THE CONCEPT OF ART PEDAGOGY

Abstract. This article outlines the concept, essence, and theoretical foundations of art pedagogy. It also analyzes the theoretical basis of the art pedagogy concept regarding the development of creative competencies among students in general secondary education schools. In the context of modern globalization, fostering independent and creative thinking, aesthetic taste, and emotional intelligence among young learners is a priority within the education system. The article examines the content, core principles, and role of the art-pedagogical approach which facilitates the development of students' creative competencies—drawing on various scholarly sources. Additionally, the benefits of integrating art-based educational technologies into the learning process are analyzed.

Keywords: Art-pedagogical approach, creative competence, creative thinking, aesthetic taste, emotional intelligence, educational technologies.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimi yangicha pedagogik yondashuvlar asosoda bilim berishni talab qilmoqda. Chunki bu yondashuvlar orqali talim tizimi samaradorligi oshib borishi takidlanmoqda.

Mamlakatimizda ham ta’lim sifatini va samaradorligini oshirish maqsadida turli xil ko‘lamdagi islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bugungi kunda yangicha yo‘nalishlardan biri bo‘lgan artpedagogik jarayon etibordan chetda qolmayapti. Artpedagogika so‘zi ikki muhim tushunchadan tashkil topgan bo‘lib “art” (inglizcha “art”) — san’at, va “pedagogika” (yunoncha “paydos” — bola, “ago” — yetaklamoq, bolani boshqarish) degan ma’nolarni o‘zida mujassam qiladi. Ushbu fanning vujudga kelishi ham ta’lim samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida vujudga kela boshlagan.

Artpedagogika so‘ziga berilgan tariflar turlicha va pedagogikada eng ko‘p uchraydi va asosiy o‘rinni egallaydi. L.N. Komissarova va T.A. Dobrovolskaya, Ye.A. Medvedeva, I.Yu. Levchenko artpedagogikani pegagogika va san’at sintezidan hosil bo‘lishini, san’at vositalari orqali tarbiyalash kamol toptirish, bilim berish va rivojlantirish sifatida ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida takidlab o‘tishadi. [1]

N.Yu.Sergeyeva esa artpedagogikani pedagogika fanining zamonaviy yo‘nalishlaridan biri ekanligini hamda ta’lim jarayonida san’at qoniniyatlarini mexanizm va tamoyillarini o‘rganadigan yo‘nalish ekanligini aytib o‘tishadi. [2]


T.G. Neretina o‘z asarlarida artpedagogikani ta’limning yangicha innovatsion yo‘nalishi ekanligini va undan o‘quvchi shaxsini ijodiy salohiyatini o‘stirish va individual xususiyatlarini o‘rganish maqsadida foydalaniladigan pedagogik yondashuv sifatida tavsiflaydi.

Butun dunyo bo‘yicha artpedagogika fanlararo yangicha samarali yo‘nalish sifatida tan olinmoqda. Lekin bugungi kunga qadar ko‘pchilik insonlar, o‘quvchi yoshlar artpedagika va artterapiyaga tarif berish yoki takidlashda adashishishadi. Artpedagogika va artterapiya bir-biri bilan bog‘lik, ammo ularning vazifa, maqsad, qo‘llanish sohasi va mutaxassislari farq qiladi. Ularni quyidagi jadval va rasmlar orqali oson farqlashimiz mumkin.

1-jadval.


Mezon	**Artpedagogika**	**Artterapiya**
Maqsadi	Ta’lim va tarbiya orqali shaxsning ijodiy va intellectual rivijlantirish	San’at vositasida psixologik muammolarnni aniqlash holatni yaxshilash
Asosiy vazifasi	Ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish	Ruhiy zo‘riqish stress, qo‘rquv psixologik muammolarni davolash
Qo‘llanish sohasi	Maktab, oliy ta’lim, makrabgacha ta’lim, tarbiya jarayonlarida	Psixologiya, tibbiy markazlar, reabilitatsiya markazlar,maslahat xizmatlari
Asosiy mutaxassisi	Pedagog	Psixolog

1-chizma



Ko‘rib turganimizdek ikkala yo‘nalishning har bir mezonlari tasniflari bir biridan farq qiladi.

2-chizma



So‘ngi yillarda umumta’lim maktablarda o‘quvchilarni har tomonlama rivojlntirish maqsadida artpedagogik yondashuv muhim yo‘nalish sifatida tan olinmoqda. Jahonda va mamlakatimizda umumta'lim maktablarida qo‘llashning ilmiy-nazariy asoslari haqida olimlar turlicha fikr va maslahatlar berib o‘tishgan.

Herbert Read san’at bilan ko‘plab fanlarni integratsiyalashni o‘z asarlarida takidlaydi. Chunki uning fikriga ko‘ra san’at o‘quvchilarni ijodiy salohiyatini rivojlantiradi, mustaqil fikrlaydi va mustaqil qaror chiqaradi. [9]

Ye. A. Medvedeva va I. Yu. Levchenko fikriga ko‘ra artpedagogika ikki fanning san’at va pedagogikaning integratsiyasi sifatida ta’riflaydilar. Ular artpedagogikani maktab o‘quvchilarini rivojlantirishda mustaqil fikrlashni rivojlantishda va ularni insonparvarlashtirishda asosiy yondashuvlardan biri ekanligini takidlashadi. [4]

L. D. Lebedeva artpedagogikani artterapiya bilan tenglashtirmaslik kerakligini alohida takidlaydi. Chunki artpedagogika davolash maqsadida emas balki ta’lim tarbiya berish jarayonida qo‘llanadigan yondashuvligini etirof etadi. Shuningdek u o‘z fikr. [5]

Ye. V. Taranov artpedagogikani turli xil yondashuvlarga ajratdi va eng samaralisi integrative yondashuv ekanligini e’tirof etdi. Uning fikricha bu yondashuv rivojlangan ta’lim muassasalari uchun eng samarali model hisoblanadi. Sababi u maktablarda san’atning turli yo‘nalishlar ya’ni musiqa, teatr, san’at yagona pedagogic tizim sifatida foydalaniladi. Natijada bilim oluvchi o‘quvchi yoshlarning kommunikativ ko‘nikmalari, kreativ va tanqidiyb fikrlashi rivojlanadi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda mamlakatimizda ham artpedagogikaga alohida urg‘u berilmoqda. Olimlarimiz bu yondashuv ustida turli xil tadqiqotlar olib bormoqda. Xususan ulardan Sh.N. Mustafaev, A.T. Gulboyev, T. Saparbaev va Ulbolsin Paxratdinova artpedagogik yondashuv asosida ta;lim berishning turli ijobiy tomonlarini o‘z tadqiqotlarida isbotlab bormoqda.

O‘zbekistonda eng faol tadqiqotchilardan biri hisoblandan A.T. Gulboyev boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy salohiyatini va estetik tarbiyasini rivojlantirish ustida tadqiqot olib borgan. Muallif “Boshlang'ich sinf o‘quvchilarida estetik tarbiya tushunchalarini rivojlantirishda art-pedagogikaning nazariy asoslari” maqolasida artpedagogikani ta’limni tashkil etuvchi pedadodik yondashuv deb tariflaydi. [7] Uning fikricha badiiy faoliyat ya’ni teatr, musiqa, san’at va rasm o‘quvchilarda mustaqil fikr yutira olish qobiliyatini, estetik didni va madaniy qadriyatlarni rivojlantiradi.

“Zamonaviy ta'lim tizimida art pedagogika vositasida o‘quvchilarning emotsional intellektini shakllantirish metodikasi” nomli maqolasida esa artpedadogika yordamida hissiyotlarni boshqarish kommunikativ kompetensiyalarin I rivojlantirish metodikasini ishlab chiqdi. [8] U badiiy faoliyat natijasida o‘quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish samarali usul ekanligini ko‘rsatdi. “The Role of Art-Pedagogical Technologies in the Formation of the Emotional and Psychological Component of the Aesthetic Perception of Younger Schoolchildren” maqolasida esa kichik yoshdagi ijodiy faolligi estetik idrokini rivojlantirish artpedagogika orqali amalga oshishini ilmiy jihatdan isbotlab berdi. [9]

Olimlardan T. Saparbaev va Ulbolsin Paxratdinova “Art pedagogika orqali o‘quvchi yoshlarga ta'lim berishning o‘ziga xos xususiyatlari” maqolasida artpedagogikaning umumiy o‘rta talim tizimidagi o‘rni yoritib berildi. Ularning fikriga ko‘ra:

Artpedagogika o‘quvchilarni mustaqil fikrlay olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

Ijodkorlikni shakllantiradi;

Guruhlarda ishlash va muloqot madaniyatini shakllantiradi;

Talim oluvchilarning estetik didini rivojlantiradi;

Ular jahonda Finlandiya ta’lim tajribasini tahlil qiladi va mamlakatimiz Oz‘bekiston maktablarifda ham qo‘llash mumkinliginin e’tirof etdi. [10]

M.N. Babanazarova “Art Pedagogy is an Integral Part of the Educational Process” (2024) maqolasida artpedagogikaning boshlang‘ich ta’limda artpedagogikaning o‘rni o‘rganilgan. Uning fikriga ko‘ra:

artpedagogika boshlang‘ich talimning asosiy qizlaridan biri hisoblanadi;

badiiy faoliyat orqali kreativ fikrlashni o‘rganadi;

fanlararo integriyatsiyaga o‘z hissasini qo‘shadi;

bilim olish jarayonini qiziqarli va samarador qiladi.

O‘zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki artpedagogika:

o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;

emotsional intellektini rivojlantiradi;

estetik tarbiyani shakllantiradi;

zamonaviy ta’lim jarayonlariga integratsiya qilishda muhim ilmiy asos bo‘la oladi.

Aytishimiz mumkinki umumiy o‘rta talim muassasalarda artpedagogik yondashuvlardan foydalanishimiz natijasida ta;lim samaradorligini oshirishimiz munkin. Ushbu yondashuvlarni turli darslarga va fanlarga integratsiya qilishimiz orqali barcha o‘quvchilarni jumladan darslarda ishtiroki sust oquvchilarni qiziqishini oshirishimiz mumkin. Bu esa dars samaradorligining ko‘rsatgichini oshiradi.

Masalan tarix fani darslarida:

tarixiy voqealarni sahnalashtirish, muzeylarga ekskursiya uyushtirish, rasm asosida tarixiy voqea-hodisalarni tahlil qilish orqali orqali o‘quvchilarning eslab qolish qobilatini yaxshilash, tarixiy tafakkurini rivojlantirish va insonparvarlik hissinni uyg‘otish mumkin.

Tabiiy fanlar darslarida (Kimyo, Biologiya,Fizika) fani darslarida:

poster tayyorlash, 3d maket yaratish, mind map, infografika yordamida o‘quvchilarning vizual xotirasini shakllantirish, murakkab jarayonlarni oson tushunib tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Chet tili darslarida :

Drama qo‘shiqlar, dialog , qo‘shiq-kuy, rasm orqali hikoya tuzish metodlari yordamida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, erkin muloqot qilish qobilioyatini rivojlantishga erishish va nutqni ravon qilish kabi samaradorlikka erishish mumkin.

Matematika fani darslarida:

rangli modellashtirish, visual shakl va rasmlar orqali mantiqiy fikrlashni kuchaytirish, fazoviy tasavvurni rivojlantirish va oson o‘zlashtirish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda esa:

Turli metodlar:

Musiqali o‘yinlar;

Rang terapiyasi;

Ertak terapiyasi;

Barmoq teatri.

Rasm chizish orqali o‘quvchi bolalarning qo‘l motorikalari rivojlannadi, nutq rivojlanadi, turli xil vaziyatlarda moslashishni o‘rganishadi, emotsional holat yaxshilanadi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida turli xil ta;lim islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o‘quvchi yoshlarni darsga qiziqishini oshirish ham ta’lim jarayonida alohida etibor talab qilmoqda. Ushbu talablarga ko‘ra pedagogikada yangicha artpedagogik yondashuvni darslar jarayonida qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Turli xil fanlarga artpedagogikani integratsiya qilish orqali ta’lim jarayonida bir qancha yutuqlarga erishishish mumkin. Jumladan: kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi, estetik did va badiiy tafakkur

yuksaladi, darslarda faollik va ishtirok darajasi ortadi, xotira mustahkamlanadi, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan bahosi ortadi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Babanazarova M.N. “Art Pedagogy is an Integral Part of the Educational Process” (2024)
2. Медведева Е.А., Левченко И.Ю., Комиссарова Л.Н., Добровольская Т.А. Артпедагогика и арттерапия в специальном образовании. – М.: Академия, 2001. – С. 24.
3. Сергеева Н.Ю. Арт-педагогика и арт-терапия: к вопросу о разграничении понятий // Учёные записки Забайкальского государственного университета. – 2016. – № 2. – С. 69–75.
4. Medvedeva, Ye. A. Levchenko I. Yu. va hammualliflar. Артпедагогика и арттерапия в специальном образовании. Moskva: Akademiya, 2001. 248-bet.
5. Lebedeva L. D. Практика арт-терапии: подходы, диагностика, система занятий. Sankt-Peterburg: Rech, 2003. 256-bet.
6. Gulboyev A.T. “Boshlang'ich sinf o‘quvchilarida estetik tarbiya tushunchalarini rivojlantirishda art-pedagogikaning nazariy asoslari” (2025)
7. Gulboyev A.T. “Zamonaviy ta’lim tizimida art pedagogika vositasida o‘quvchilarning emotsional intellektini shakllantirish metodikasi” (2025, 379–386-betlar)
8. Gulboyev A.T. “The Role of Art-Pedagogical Technologies in the Formation of the Emotional and Psychological Component of the Aesthetic Perception of Younger Schoolchildren”
9. Herbert Read. Education Through Art. London: Faber & Faber.3-nashr (1974) – 328 bet.